

**GENDER TENGLIGI TUSHUNCHASI VA SIYOSIY IJTIMOYIY MUNOSABATLAR**

Sayfullayeva Mashxura

O'zMU Jizzax filiali M02-25 guruh magistri

Abdusalomova Charos

O'zMU Jizzax filiali M02\_25 guruh magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20174642>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gender tushunchasing fanga kirib kelishi, gender tenglik, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglikmunosabatlarining siyosiy-ijtimoiy holati tahlil qilingan

**Kalit so'zlar:** gender, gender tenglik, siyosiy-ijtimoiy munosabatlar.

**Kirish.** Gender konsepsiyasi biologik jins bilan (inglizcha – sex) ijtimoiy jins (inglizcha – gender) farqlanishiga hamda jinslar orasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat erkaklar va xotin-qizlarning biologik o'ziga xosligi bilan belgilanmasligi, ular o'rtasidagi ijtimoiy rollar fiziologik farqlardan sezilarli ravishda kengligini anglashga qurilgan. Jins anatomik, fiziologik tushuncha, ya'ni individning biologik jinsga oidligini belgilovchi biologik xususiyatlar birligidir (6). Biroq odamlar o'rtasida yana bir muhim – biologik farqlardan tashqari ijtimoiy rollar, har xil faoliyat turlari, xatti- harakat va psixologik xarakteristika jihatidan ham bo'linish mavjud. Jinsdan farqli o'laroq, gender – psixologik, madaniy va ijtimoiy vositalar bilan shakllanadi. Gender terminining fanga kiritilishi shuni anglashga yordam beradiki, “jamiyatdagi erkaklar va xotin-qizlar rollari ijtimoiy jihatdan tashkil topadi va belgilanadi”. Gender, avvalo erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Bu tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog'liq holda rivojlanib boradi. Tarixdagi matriarxat yoki patriarxat tushunchalari ham bunga yaqqol misoldir. Ta'lim-tarbiya yo'nalishida gender tushunchasi faqat qizlarga taalluqli emas, chunki u o'z xususiyatiga ko'ra o'g'il va qiz bolalar orasidagi munosabatlarni tavsiflab ta'riflaydi, ya'ni, ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linganligi, xattiharakat va individlarning psixologik xarakteristikalarida o'ziga xosliklar mavjudligini o'rganadi. Ko'rinib turibdiki, olimlarning gender so'zini termin sifatida o'rganishni taklif qilishlari nafaqat psixoloanalitika yoki jamiyatshunoslik, balki turli sohalar, jumladan pedagogika va tilshunoslikda ham keng qo'llanishiga yo'l ochib berdi. Bugungi kunda bu yo'nalishlar tarkibida gender pedagogikasi va tilshunosligi shakllanib, gender munosabatlari, gendercha tahlil, gendercha tenglik kabi mavzularda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ma'lumki, biologik va ijtimoiy xususiyatlardan tashqari gender omillarga madaniy xususiyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Muayyan madaniyat insoniyat tomonidan dunyo haqidagi bilimlarni anglash va tartibga solish davomida vujudga kelgan narsapredmet, voqeliklar bo'lib, u milliy gender qarashlar shakllanishida muhimahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonunining 13-moddasida xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarinig vakillari ishtirokida maslahat kengashlarini tuzish mumkinligi belgilangan. Mazkur normaga asoslanib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, shuningdek, barcha oliy ta'lim muassasalarida tuzilgan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi – gender tenglikni ta'minlashning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlar va erkaklar

uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi – gender tenglikni ta'minlash hamda jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilishini bartaraf etish maqsadida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha tuzilgan kollegial maslahat organi hisoblanadi. Maslahat kengashining faoliyati qonuniylik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymasligi, ochiqlik va shaffoflik tamoyilari asosida olib boriladi. Xususan, O'zbekistonda ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik munosabatlari berilayotgan chuqur e'tiborni amalga oshirilayotgan qator loyihalarda ko'rish mumkin. Masalan, 2019-yil 2-sentabr, O'RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonunning qabul qilindi, unga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan va hk. chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shu qator, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi – Gender tenglikni amalga oshirish doirasida O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to'qqizta vazifa ishlab chiqilgagini ham ta'kidlash mumkin. U 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini o'z ichiga oladi. Gender munosabatlarda xalqaro standartlarga haqiqiy yaqinlashuvga erishish, eng muhimi, ayollarni jamiyatning barcha jabhalarida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha qator oddiy, ammo samarali chora-tadbirlar mavjudligini ta'kidlash mumkin. Mamlakatimizda, kvota tizimining ayollarga yo'naltirilganligining ortib borayotganligini, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan voqeliklar, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarga kontrakt to'lovlarini to'liq davlat tomonidan qoplanishi haqidagi amaliy chora-tadbirlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarning mahalliy darajada va ijroiya hokimiyatida vakilligining oshib borishi, ularning parlament faoliyatidagi faol ishtirokini ham ta'kidlash zarur.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, davlatimizda gender siyosatining muhim strategik maqsadi millat oilasida xotin-qizlarning o'rni, ularning moliyaviy ahvolini va ijtimoiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan. Bunday strategiyani quyidagilarda ko'rish mumkin: ko'p bolali, yosh, kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashni o'z ichiga olayotganligi; sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida yagona ijtimoiy standartlar ishlab chiqilayotganligi; oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etish, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish muammolari kabilarga e'tibor qaratilmoqda. Oilada gender tengligiga erishish, ya'ni ayol kishini kamsitilishi kabi illatlarni yo'qotishga erishish turli ijtimoiy institutlar va sohalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga olib keladi.

#### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonuni. 2019-yil, 2-sentabr.
2. Gender i kultura. – Dushanbe: Aziya-plyus, 1999. – 96 s.

3. Gumboldt V. fon. Yazik i filosofiya kulturi. – Moskva, 1985. – S. 142-159.
4. <http://www.gender-cent.ryazan.ru/lecturers.htm#blohina>
5. Money, John. (1952). Hermaphroditism: An Inquiry into the Nature of a Human Paradox. Thesis (Ph.D.), Harvard University press.
6. Stoller R. J. Sex and Gender: The Development of Masculinity and Femininity. –United Kingdom: Routledge, 1994. – 400 p.
7. Zdravomislova Ye.A., Temkina A.A. Sotsialnoe konstruirovaniye gendera. Sb. “Vozmojnosti ispolzovaniya kachestvennoy metodologii v gendernix issledovaniyax”. – Moskva, 2001. – S. 49.
8. Jamoldinova O.R. Ta’lim tizimida gender yondashuvni tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O‘zbek ILMIY-METODIK JURNALI. 2022-yil, 1-son. B. 17-25. <https://doicode.ru/doifile/regdoi/2022/06/doicode-2022.055.pdf>.
9. Бахронова Д.К. ГЕНДЕР И ЦЕЛЕВЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ // Гендерные исследования в гуманитарных науках: сб. ст. по матер. III междунар. науч.-практ. конф. № 3. – Новосибирск: СибАК, 2015.
10. Жамолдинова О., Эгамбердиева Т., Солихўжаева Д. Олий таълим тизимида гендер ёндашув: бугун ва келажак тамойиллари. Услубий қўлланма – Тошкент, 2022. – 79 б.